



## OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA TA'LIM SIFATINI BAHOLASHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR VA MODELLARDAN FOYDALANISH

**Shermuhammadov Bahromjon Bahodirjon o'g'li**

*Farg'ona davlat universiteti*

ORCID: 0009-0004-1872-7504

[fardu\\_info@umail.uz](mailto:fardu_info@umail.uz)

**Annotatsiya.** Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida oliy ta'lim tizimining rivojlanish bosqichi va kelgusida amalga oshiriladigan ishlari va rivojlangan davlatlar tajribasidan foydalangan holda xizmatlarning innovatsion yo'nalishlaridan bo'lgan ta'lim xizmatlari, dasturlash xizmatlari, intellektual mulk, injenering va boshqa istiqbolli xizmatlar turlarini jadal sur'atlarda rivojlantirish, mavjud imkoniyatlardan samarali foydalanib, xizmatlar eksportini o'stirish asosida mamlakatimiz innovatsion rivojlanishi uchun har tomonlama foydali taraqqiyot yo'liga o'tishni ta'minlaydigan ustuvor vazifalardan hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** oliy ta'lim tizimi, rivojlantirish konsepsiyasi, o'quv reja, oliy ta'lim muassasalari, innovatsiya, kredit-modul, ta'lim dasturlari, kengashning asosiy vazifalari, xalqaro aloqalar, strategik maqsadlar

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПЕРЕДОВОГО ЗАРУБЕЖНОГО ОПЫТА И МОДЕЛЕЙ В ОЦЕНКЕ КАЧЕСТВА ОБРАЗОВАНИЯ В ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЯХ

**Шермухаммадов Баҳромжон Баҳодиржонович**

*Ферганский государственный университет*

**Аннотация.** Образовательные услуги, услуги по программированию, интеллектуальная собственность, инжиниринг и другие перспективные виды услуг, основанные на этапе развития системы высшего образования в процессе построения нового Узбекистана и перспективной работе и опыте быстрого развития, эффективного использования. имеющихся возможностей, рост экспорта услуг, считается одной из приоритетных задач, обеспечивающих переход на путь всестороннего благотворного развития инновационного развития нашей страны.

**Ключевые слова:** система высшего образования, концепция развития, учебная программа, вузы, инновации, кредитный модуль, образовательные программы, основные задачи совета, международные отношения, стратегические цели.

## THE USE OF ADVANCED FOREIGN EXPERIMENTS AND MODELS IN ASSESSING THE QUALITY OF EDUCATION IN HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS

*Shermuhammadov Bahromjon Bahodirjon ugli*  
*Fergana State University*

**Abstract** *Educational services, programming services, intellectual property, engineering and other promising types of services based on the development stage of the higher education system in the process of building a new Uzbekistan and the future work and the experience of developed countries. rapid development, effective use of available opportunities, growth of export of services is one of the priority tasks that ensure the transition to the path of all-round beneficial development for the innovative development of our country.*

**Keywords** *higher education system, development concept, curriculum, higher education institutions, innovation, credit module, educational programs, main tasks of the council, international relations, strategic goals.*

### **Kirish.**

Xizmatlar savdosi avval inson omili bilan bevosita bog'liq bo'lgani uchun qiyin kechgan bo'lsa, keyinchalik bilimlarga tayangan raqamli iqtisodiyotning rivoji xizmatlar xalqaro savdosini yuritishda bir qator to'siqlarni bartaraf qildi va sohani innovatsion rivojlanishiga asosiy turtki bo'ldi. Internet, mobil aloqa vositalari, nanotexnologiyalar va boshqa intellektual texnologik innovatsiyalar xizmatlar savdosini huddi tovarlar savdosi kabi deyarli moddiy ko'rinishga keltirib qo'yimoqda. Kelajakda texnologiyalarning bunday virtual imkoniyatlarining oshib borishi xizmatlar tezligini yanada oshirib uning tannarxini yanada tushirishi va xizmatlar sohasining global bozorda yana katta ulushga ega bo'lishiga olib kelishi ehtimolini yuqori qilib qo'yimoqda.

"O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi"da xorijiy talabalarning ulushini 2019 yildagi 1 % dan 2025 yilgacha 10 % va 2030 yilgacha esa 15% ga olib chiqish (Farmon, 2019), hamda dasturlash xizmatlari xalqaro savdosi bo'yicha "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasida dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalari texnoparkining inkubatsiya va akseleratsiya dasturlariga kiritilgan startap-loyihalar sonini 2020 yildagi 50 tadan 2025 yilgacha 700 taga, 2030 yilgacha esa 2300 taga olib chiqish, shuningdek, dasturiy mahsulotlar eksportini 2020 yildagi 10 million dollardan 2025 yilgacha 100 million dollargacha, ya'ni, 10 barobar oshirish va ularni yalpi ichki mahsulot (YaIM)ning axborot texnologiyalari sektoridagi ulushini kamida 4 foizga ko'tarish strategik maqsad qilib rejalashtirilgan (Farmon, 2019).

### **Adabiyotlar tahlili.**

"Ta'lim xizmatlari insonning uzoq muddatga mo'ljallangan, uning butun faol hayotining barcha davri mobaynida jamiyatning raqobatbardosh a'zosi bo'lib qolishga imkon beruvchi vakolat (huquq)larini shakllantirishi lozim" (Константинов, Филонович, 2005).

Xodiyevning (2012) maqolasida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollari kelib chiqib, o'rta muddatli istiqbolda oliy ta'limda xizmatlar ko'rsatish tizimining asosiy yo'nalishlari ta'kidlangan bo'lib, maqolada ilmiy tadqiqotimizga oid masalalar o'rin olgan. Bu masalada olimlarning mulohazalari quyidagicha: "Oliy ta'limda xizmat ko'rsatishdan kutiladigan xususiy manfaat bu bevosita ta'lim oluvchilar uchundir. Ta'lim xizmatlarining iqtisodiy natijalari shakli turlicha, ya'ni natura va pul ko'rinishida, bevosita va bilvosita bo'lishi mumkin. Qoidaga ko'ra, inson qanchalik yuqori darajada ta'lim olsa, u shunchalik ko'p oylik maosh oladi (pul ko'rinishidagi samara), nufuzli ishga kirishda imkoniyati oshadi (pul ko'rinishida bo'lmagan samara), ilmiy-texnik taraqqiyot tufayli bo'layotgan o'zgarish va yangilanishlarga tezda moslashadi (bilvosita samara) (Гулямова,

Абдурахмонова, 2004), “XXI asrning intellektual iqtisodiyotida yuqori malakali mutaxassislarining mavqeyi o’sib boradi. Shuning uchun, ... innovatsion loyihalar ishlab chiqarish va joriy etishga qodir kadrlar tayyorlash respublika va hududlar miqyosida birinchi darajali vazifa bo’lishi lozim” (Рахманбаева, 2012), “XXI asr – intellektual boylik, yuksak bilim va salohiyat talab etadigan asr. Darhaqiqat, taraqqiyot yo’lidan izchil rivojlanishda hal qiluvchi muhim mezon zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan mutaxassislar hisoblanadi” (Хамрақулов, 2011).

MDH davlatlari olimlaridan biri Yu.A.Shevchenkoning asarida “Ta’lim xizmatlarining shakllanishi, oliy ta’lim muassasalarida narxning shakllanishi va uning marketing strategiyasi, ta’lim xizmatlariga narx belgilashning umumiy algoritmi, pullik ta’lim xizmatlari bahosini aniqlashda xarajatlar usuli, oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirish, ta’lim xizmatlariga narx belgilash bosqichlari, davlat oliy ta’lim muassasalarida narx belgilash siyosatining maqsadlari kabi masalalar tadqiq qilingan” (Константинов, Филонович, 2005).

Shuningdek, V.S.Bajenovanning asarida “Ta’lim xizmatlarining shakllanishi, ta’lim xizmatlarida marketing tadqiqotlarini amalga oshirish, ta’lim xizmatlariga talab va taklif muvofiqligi, bitiruvchilarni ishga joylashtirishni tartibga solish, iqtisodiyotning transformatsiyalashuvi sharoitida uzluksiz ta’limni amalga oshirish siyosatining asosiy yo’nalishlari, bitiruvchilarni ishga joylashtirishni tartibga solish mexanizmlari, oliy ta’lim muassasalarida moliyaviy resurslarni diversifikatsiyalash jarayoni, ta’lim xizmatlari bozorida raqobatni qo’llab-quvvatlash bilan bog’liq tadqiqotlar olib borilgan” (Ходиев, 2012).

M.A.Lukashenko asarida “Ta’lim xizmatlarining xususiyatlari va shart-sharoitlari, oliy ta’lim muassasalarini boshqarish tizimi, ta’lim xizmatlarida talab va taklifning shakllanishi, mehnat bozori va ta’lim xizmatlari bozorining o’zaro bog’liqligi, bitiruvchilarni ishga joylashtirish jarayoni, oliy ta’limni rivojlantirish siyosatining maqsad va vazifalari, ta’lim xizmatlari bozorida raqobatni shakllanishiga doir masalalar tadqiq qilingan”.

Rossiyalik tadqiqotchi L.V.Zaxarovanning tadqiqot ishida “Ta’lim xizmatlarining rivojlanish xususiyatlari, ta’lim xizmatlari va mutaxassislar mehnat bozorining o’zaro bog’liqligi, ta’lim xizmatlari tushunchasining mohiyati, mazmuni va tasnifi, ta’lim xizmatlari bozorida raqobatni shakllanishi, ta’lim xizmatlariga talab va taklifning shakllanishi, oliy ta’lim muassasalarini bitiruvchilarini ishga joylashtirish, ta’lim xizmatlari bozorining strategik rivojlanishi va marketing tadqiqotlari masalalari o’rganilgan” (Гулямова, Абдурахмонова, 2004).

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Maqolada oliy ta’lim xizmatlari sifatini baholash ko’rsatkichlari keyingi bir necha yillardan beri ta’lim tizimining eksponensial o’zgarishi jarayonlari bilan belgilanadi.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi.**

Ta’lim olish maqsadida ilm izlovchilarning bir hududdan ikkinchi bir hududga yoki mamlakatga ko’chib borish harakatlari dastlab eramizdan oldingi IV asrga borib taqaladi. XX asrga kelib ta’lim xizmatlari savdosi faqat foyda ko’rish yoki biznes qilish uchun emas, balki, kam rivojlangan mamlakatlarga ijtimoiy ko’mak sifatida ko’proq shakllangan va vaqt o’tishi ushbu innovatsion xizmat turining rivojiga olib keldi. Keyingi davrda, ingliz tili rasmiy til deb tan olingan sanoati rivojlangan mamlakatlarda ta’lim xizmatlari rivojlantirildi. Bu holat ta’limni, aniqrog’i, innovatsiyalarning tijoratlashtirilishini jadallashtirdi. Xususan, 1985-2000 yillarda transmilliy ta’lim orqali offshor bozorlarda turli xalqaro darajadagi franchayzing va qo’shma dasturlar hamda hamkorlik (twinning) dasturlari taraqqiy qildi. XXI asrdan boshlab, Dubay, Singapur, Shanxay, London, Doha va boshqa shaharlarda “transmilliy ta’lim markazlari (hubs)” larda offshor kampuslarning tashkil qilinishi ta’lim xizmatlari xalqaro savdosining yanada jadal rivojlanishiga olib keldi. Bunga misol qilib Rossiya, Italiya, Malayziya, Yaponiya va Janubiy

Koreya kabi davlatlar ko'plab kampuslarining O'zbekistonda ham joylashganligini bunga misol qilib keltirish mumkin.

Mamlakatimiz ta'lim tizimi uchun yangi bo'lgan "Choice Based Credit system (CBCS) – O'qitishning tanlovga asoslangan kredit tizimi" ni mamlakatimiz va uning mintaqalarida, jumladan, Farg'ona davlat universitetida joriy qilinishi esa ta'lim xizmatlarining yanada rivojlanishiga sabab bo'ladi. Ushbu innovatsion tizimning joriy qilinishi ta'limda nazoratni kuchayishiga, talabalarning mustaqil izlanishiga, pedagoglar o'rtasida kuchli raqobat shakllanishiga, o'quv dasturlarining jahon standartlariga yaqinlashishiga, tizimning elektronlashishiga va, eng muhimi, milliy ta'lim tizimi imidjining jahon ta'lim bozori standartlari darajasiga ko'tarilishiga olib keladi. Iqtisodiyot bo'yicha 2019 yilgi Nobel mukoffoti sovdindorlarining ta'lim dasturlari bo'yicha olib borgan ilmiy izlanishlari natijalariga ko'ra, qisqa muddatli shartnoma asosida faoliyat olib boradigan pedagoglarning natijalari odatdagi tizimga nisbatan yuqori samarali ekanligi, ya'ni, bir yillik yoki yuqori natija ko'rsatgan pedagoglarga nisbatan uzoqroq muddatli shartnomalar orqali ishga yo'llash ta'lim sohasi rivojiga ijobiy xizmat qilishi aniqlangan. Malayziyalik iqtisodchi olim S.Y. Tam ta'lim xizmatlari xalqaro savdosi rivojida shaffof qonunchilik mavjudligi, akkreditatsiyaning faqatgina boshqaruvga yoki hujjatlarga emas, balki ta'lim sifatiga kuchli e'tibor qaratilishi va universitetlar nufuzi bilan bog'liq ekanligini ilmiy tadqiq qilgan.

Bizning fikrimizcha, yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, innovatsion ta'lim xizmatlari – bu o'rganuvchilarga samarali, qiziqarli va oson uslubda bilimlarni yetkazib berishning yangicha hamda noyob o'rgatish texnologiyasidir. Oliy ta'lim muassasalari ta'lim berishning an'anaviy shakllaridan voz kechgan holda, o'rganuvchilarda xato qilib qo'yishdan cho'chimaslik va to'liq erkin holda g'oyalarini yuzaga chiqarishga imkoniyat yaratib berish, deb hisoblaymiz.

Xizmatlari sohasida bugungi kunda kuzatilayotgan eng katta kamchilik, bu sohada malakali kadrlarning yetishmasligidir. Faoliyat olib borayotgan ko'pchilik mutaxassislarining faqatgina amaliy ko'nikmalarga egaligi, ham nazariy, ham amaliy tajribaga ega bo'lgan mutaxassislar kamligi oliy ta'lim muassasalari ta'lim xizmatlari bilan bog'liq turli muammolarga sabab bo'lmoqda. Ushbu soha mutaxassislarini tayyorlash bilan bog'liq ta'lim tizimini to'g'ri tashkil qilish, xorij tajribalarini o'rganib kelish bilan bog'liq tizimning yo'lga qo'yilishi soha rivojiga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion xizmatlar turlarining ko'payishi, ularning rivoji mintaqada mavjud imkoniyatlar, shart-sharoitlar bilan birgalikda, ekzogen (tashqi) va endogen (ichki) omillar bilan ham bevosita bog'liq hisoblanadi. Ushbu yondashuvdan kelib chiqqan holda, Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion xizmatlarni rivojlantirish asosida bu omillarni chuqur tahlil qilish va natijalarni amaliyotga izchil tatbiq qilish yotadi. Amalda innovatsiya mamlakatlarning o'zlari bilan bog'liq bo'lmagan tashqi va ichki o'zgarishlar bilan bevosita bog'liq bo'lgan endogen hamda aralash shakllardagi omillarga bo'linadi. Mamlakatimizda hozirgi davrga kelib ko'rsatilayotgan har qanday innovatsion xizmat turlarining YaIM tarkibidagi ulushi hamda ularning xoh ichki bo'lsin, xoh tashqi savdodagi ulushi nisbatan kichik hajmga ega. Innovatsion xizmatlar hajmi yildan-yilga rivojlanish tendensiyasiga ega bo'lsada, taraqqiy qilgan mamlakatlardagi bilan respublikamiz va uning boshqa mintaqalaridagi natijalar taqqoslanganda, ham sifat, ham hajm jihatdan ancha orqada ekanligi yuzaga chiqadi. Shu sababdan ham, yangilanayotgan institutsional sharoitda, raqobatbardoshlikning eng muhim tarkibiy qismi bo'lgan mintaqaviy iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi unda ilm, ta'lim, ishlab chiqarish, moliyaviy, ijtimoiy faoliyatlarning bir-biri bilan chambarchas bog'liq tarzda shakllanishini nazarda tutadi.

Tadqiqotlar va tahlillar asosida oliy ta'lim muassasalarida xizmatlar bugungi kundagi holati va uning kelajakda rivojlanishiga ko'plab ekzogen va endogen omillar ta'sirlari juda yuqoriligini kuzatish mumkin. Xizmat ko'rsatuvchi subyektlar hamda ularning faoliyat yuritishi bilan bog'liq jarayonlarga ta'sir qiluvchi barcha omillar shartli ravishda ikki katta guruhga, ya'ni, ekzogen va endogen omillarga bo'lib o'rganildi. Nazarimizda omillarni bunday tasniflash

va ular tahlili oliy ta'lim muassasalarida innovatsion xizmatlar rivojlanishi bilan bog'liq muammolarni hal qilish hamda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni tezda bartaraf qilish imkonini beradi va kelajakda soha jadal rivojida amaliy dastur bo'lib xizmat qiladi.

ekzogen omillar		endogen omillar
<ul style="list-style-type: none"> <li>- To'g'ri tashkil qilingan tashqi</li> <li>- iqtisodiy aloqalar</li> <li>- Integratsion aloqalar</li> <li>- Moliyaviy resurslar</li> <li>- Erkin savdo hududlari</li> <li>- Jahon talabidagi standartlar va boshqalar</li> </ul>	Iqtisodiy	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Xizmat ko'rsatish turi</li> <li>- Daromadlar manbalari va taqsimlanishi</li> <li>- Subsidiya, moliyaviy yordam va zaxira</li> <li>- Faoliyat ko'lam darajasi va boshqalar</li> </ul>
<ul style="list-style-type: none"> <li>- Milliy qadriyatlar va an'analar</li> <li>- Diniy qarashlar</li> <li>- Tarixiy qadriyatlar va aloqalar</li> <li>- Aholining sohaga bo'lgan moyilligi</li> <li>- Ijtimoiy infratuzilmalar mavjudligi</li> </ul>	Ijtimoiy	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Xodimlarni har tomonlama ijtimoiy himoyasi</li> <li>- Ijtimoiy rag'bat tizimining yo'lga qo'yilganligi</li> <li>- Yosh mutaxassislarni qo'llab-quvvatlash va ustoz-shogird munosabatlari</li> </ul>
<ul style="list-style-type: none"> <li>- Geografik joylashuv</li> <li>- Tabiiy resurslar</li> <li>- Ekologik va sanitar gigiyenik vaziyat</li> <li>- Tabiiy-geografik ofatlar</li> <li>- Harorat, iqlim o'zgarishlari va boshqalar</li> </ul>	Tabiiy	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Xizmatlarning ekostandartlarga mosligi</li> <li>- Ekologik bilim, madaniyat va etika</li> <li>- Tabiiy ofat va iqlimiy o'zgarishlardan himoyalash vositalari, jihozlari va boshqalar</li> </ul>
<ul style="list-style-type: none"> <li>- Innovatsion texnologiyalarning jalb qilinganligi</li> <li>- Sohaga ilmiy yondashuv</li> <li>- Infratuzilma darajasi</li> <li>- Texnopolis, texnoparklar hamda markazlar tashkil qilinganligi va boshqalar</li> </ul>	Fan va texnika-texnologiya	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Texnik va texnologik qurollanganligi</li> <li>- Fan-texnika yutuqlari joriy qilinishi</li> <li>- Xodimlar malakasining oshib borishi va boshqalar</li> </ul>
<ul style="list-style-type: none"> <li>- Yuqori sifatli ma'lumotlar bazasini shakllantirish</li> <li>- Hamkorlar bilan aloqalar va ular o'rtasidagi raqobatga oid ma'lumotlar</li> <li>- Tezkor va birlamchi axborotlar olinishining innovatsion vositalari va boshqalar</li> </ul>	Axborot	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Ishchilar bilan aloqa va teskari aloqa mavjudligi</li> <li>- AKT bilan ta'minlanganlik va ulardan foydalanish darajasi</li> <li>- Xodimlarning kundalik ma'lumot bilan ta'minlanganligi, kiberxavfsizlik va boshqalar</li> </ul>
<ul style="list-style-type: none"> <li>- Zamonaviy boshqaruv usullari</li> <li>- Xalqaro tashkilotlarga a'zolik</li> <li>- Ikki va ko'p tomonlama aloqalar</li> <li>- Malakali kadrlar, ular bilimni oshirish, qayta o'qitish va boshqalar</li> </ul>	Tashkiliy	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Qarorlarni ishlab chiqish va qabul qilishda nazorat va monitoring</li> <li>- Sohada xodimlarning yetarli tajribaga egaligi va layoqati</li> <li>- Ichki boshqaruv tizimi shaffofligi</li> <li>- Xodimlarning jamoaga sodiqligi va boshqalar</li> </ul>
<ul style="list-style-type: none"> <li>- Xalqaro huquqiy normalar</li> <li>- Sohaga oid huquqiy normalar va meyoriy xujjatlar</li> <li>- Xalqaro huquqiy nazorat va monitoring</li> <li>- Hamkorlikka oid xalqaro huquqiy shartnomalar, kelishuvlar va boshqalar</li> </ul>	Huquqiy	<ul style="list-style-type: none"> <li>- Mulkiy egalik qilish shakli va xususiyatlari</li> <li>- Soha va xodimlar faoliyatining huquqiy himoyalanganligi</li> <li>- Xodimlar huquqlari himoyasi kafolatlanganligi</li> <li>- Qonun ustuvorligi va boshqalar</li> </ul>

**1-rasm. Xizmat ko'rsatuvchi subyektlarni tashkil qilish va samarali faoliyatini ta'minlashga ta'sir qiluvchi ekzogen va endogen omillar guruhlarini tasnifi**

*Manba:* muallif tomonidan ishlab chiqilgan.



Ushbu maqsadda oliy ta'lim muassasalarida xizmat ko'rsatuvchi subyektlar faoliyatini tashkil qilish va barqarorligini ta'minlashga ta'sir qiluvchi ekzogen va endogen omillar turlari va ularning tasnifini quyidagicha shakllantiramiz (1-rasm).

Iqtisodiyotda xizmat ko'rsatuvchilar faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillarni mavjud nazariy bilimlarga tayangan holda, ikkita katta, ekzogen va endogen guruhlariga, o'z navbatida, bu guruhlarini asosiy yettita kichik bo'limlarga ajratgan holda tasniflandi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatuvchi subyektlar faoliyatini olib borish, jahon standartlariga mos xizmatlarni tashkil etishda bevosita iqtisodiy qonuniyatlar muhim rol o'ynashini inobatga olgan holda birlamchi omil sifatida iqtisodiy omillar qarab chiqildi. Bugungi kunda mavjud ko'rsatilayotgan xizmatlarni kelajakda hajm va sifat jihatdan rivojlantirishda, uning innovatsion turlarini amaliyotga tadbiiq qilishda eng muhim omilni iqtisodiy omil tashkil qiladi.

Ekzogen omillar sifatida, innovatsion xizmatlar ko'rsatilishida rivojlangan mamlakatlar tajribasi muhim rol o'ynashini inobatga olib, tashqi iqtisodiy aloqalar va integratsion aloqalar o'rnatilishi bevosita ta'sirga ega. Innovatsiyalar amaliyotda katta hajmdagi investitsiya bilan bog'liqlikda rivojlanadi. Buning uchun tashqi moliyaviy resurslar zarurligi, investorlar faoliyatini tashkil qilishiga jozibador muhit, ya'ni, erkin savdo hududlarining tashkil qilinishi va natijada jahon standartlariga mos xizmatlar ko'rsatilishi bilan bog'liq omillar ijobiy ta'sirga ega hisoblanadi.

Endogen iqtisodiy omillar sifatida, oliy ta'lim muassasalarida diversifikatsiyasi, daromadlar manbalari va taqsimlanishining sifati, islohotlar davrida davlatning moliyaviy ko'magi hamda subsidiyalar ko'lami va boshqa omillar ta'sir doirasi kengligi inobatga olindi.

Shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida xizmatlarni tashkil etishda milliy qadriyatlar, diniy qarashlar, rag'bat va munosabatlar, aholi qiziqishi, intellektual salohiyati va ijtimoiy himoya darajasi bilan bog'liq munosabatlarni inobatga olgan holda endogen va ekzogen ijtimoiy omillar ham o'rganildi.

Barcha sohalarda bo'lgani kabi, faoliyat turining geografik joylashuvi, resurslarning mavjudligi, ekologik holat, iqlim o'zgarishlari va boshqa tabiiy jarayonlar hamda xizmatlarning ekostandardlarga mosligi, aholining ekologik bilim, madaniyat va etikasi ta'sirlarini inobatga olib, xizmatlar sohasida endogen va ekzogen tabiiy omillar ham katta ta'sirga ega

To'rtinchi guruh sifatida fan va texnik-texnologik omillar keltirilgan bo'lib, bunda asosiy e'tibor innovatsion texnologiyalarning jalb qilinganligi, oliy ta'lim muassasalarida ilmiy yondashuv, infratuzilma darajasi va boshqa shart-sharoitlarga qaratilgan. Bevosita ta'lim xizmatlarini ko'rsatishda tadqiqot obyekti bo'lganligini e'tiborga olib, bu muhim omillarning ISO 9001: 2000 standartining iste'molchilar ehtiyojlari hamda talablarining qanchalik qondirilganligini baholaydigan sifat menejmenti tizimi e'tiborimizda bo'ldi.

Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion xizmatlar turlarini rivojlantirishda qarorlarni to'g'ri va o'z vaqtida qabul qilish lozim. Faoliyat barqarorligiga erishishda axborot sifati, ishonchliligi, xavfsizligi, jarayonning yuqori zamonaviy dastur hamda AKT vositalari va jihozlari bilan ta'minlanishida axborot omillarining muhim ahamiyat kasb etishi inobatga olindi.

Mamlakatimizda azaldan nufuzli oliy ta'lim, tibbiyot o'quv va o'rta maxsus bilim yurtlari sonining ko'pligi, qo'shni Turkmaniston va Qozog'istonning chegara viloyatlaridan bizdagi ta'lim va tibbiy xizmatlariga bo'lgan ehtiyojning yuqori ekanligini ko'rsatmoqda. Bu omil istiqbolda, mavjud imkoniyatlardan yanada unumli foydalanib va kengaytirib, soha xizmatlari xalqaro savdosini jadal sur'atlarda rivojlantirishga asos bo'ladi.

Shu o'rinda Amerikaning xalqaro o'qituvchilar ta'lim va almashinuvga ixtisoslashgan dunyodagi eng yirik notijorat birlashmasi (NAFSA) AQShning 509 ta universitetlari orasida ta'lim xizmatlari eksportiga aks ta'sir qiladigan omillar bo'yicha so'rovnoma natijalarini keltiramiz (1-jadval).

Ta'lim xizmatlari eksportiga aks ta'sir qiladigan omillar<sup>22</sup>

Ro'yxatdan o'tishni rad etish sababi	2021 Kuzgi semestr (%)	2022 Kuzgi semestr (%)	2023 Kuzgi semestr (%)
Viza olish jarayonidagi kechikishlar yoki rad etish	34	68	83
Ijtimoiy va siyosiy muhit	15	57	60
Boshqa davlat universitetlaridan ro'yxatdan o'tish	19	54	59
O'qish narxi	51	55	57
O'zini noqulay his qilishi	-	49	50
Ish bilan ta'minlanganlik	-	41	44
Xavfsizlik	12	33	44

So'rovning birinchi yilida eng yuqori ko'rsatkich o'qish narxining yuqoriligi bo'lsa, 2022 yilga kelib, viza munosabatlari eng yuqoriga chiqqan va so'nggi, 2023 yilda ham deyarli 83% talabalar viza olish bilan bog'liq muammolarga uchranganliklarini ma'lum qilganlar. Shu bilan birga, qolgan barcha 6 ta yo'nalishda ham dastlabki yilga nisbatan o'sish, ya'ni, muammolar ko'payganligi ma'lum bo'lgan va buning oqibatida dunyo bo'yicha AQShda ta'lim oluvchilar hajmi umumiy 28% dan 21%gacha pasaygan.

Avstraliyadagi bitiruvchilarga o'qishdan keyin qolib, 18 oy ishlashi mumkinligi to'g'risidagi qonun 2023 yilda ro'yxatdan o'tgan talabalar hajmining 15% ga oshishiga va Kanadada bitiruvchilarga uch yillik ishchi vizasining berilishi esa 2022 yilda bu mamlakatda ro'yxatdan o'tgan talabalar hajmining 20 % o'sishiga olib kelgan.

Fikrimizcha, oliy ta'lim tizimini ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlari ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda, fan, ta'lim va ishlab chiqarishning mustahkam integratsiyasini ta'minlash asosida ta'lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish maqsadida ishlab chiqilganligi asoslangan ustuvor tarmoqlar jadal rivojlanishi bilan mamlakat iqtisodiyoti uchun multiplikator samaradorligini berishda katta ahamiyat kasb etadi.

### Xulosa va takliflar.

Yuqorida belgilangan vazifalar va amaliy natijalar asosida quyidagi taklif va tavsiyalar berildi:

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar hamda axborot texnologiyalarini rivojlantirishga qaratilgan amaliy "Bir million o'zbek dasturchilari" loyihasi, hududlarda IT parklari markazlari va biznes inkubatorlarining tashkil qilinishi bilan bog'liq jarayonlar taklif qilinayotgan bu konseptual chora-tadbirlarning kelajakda albatta natijalaridan bo'ladi.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar, ta'limga kredit tizimining joriy qilinishi, oylik maoshlarning oshirilishi, fanlar sonini qisqartirish bo'yicha takliflarning ishlab chiqilganligi kelajakda albatta o'z mevasini beradi. Albatda, ta'lim xizmatlari savdosi bilan jahon bozoriga kirish va kuchli raqobatga moslashish uchun yuqoridagilarning o'zi kamlik qiladi. Ta'lim xizmatlari bilan jahon bozoriga kirish uchun kuchli tajribaga ega bo'lgan ta'limda katta yutuqlarga erishgan mamlakatlar tajribasidan foydalanish talab qilinadi. Albatta, ushbu erishilgan natijani saqlab qolish va kelajakda yanada rivojlantirish uchun kelajakda qo'shni va boshqa turli imkoniyatlari yuqori bo'lgan Osiyo mamlakatlari bilan geosiyosiy, savdo-iqtisodiy, madaniy-tarixiy aloqalarni yanada kuchaytirish hamkorlikda faoliyatni takomillashtirish yaxshi samaralar beradi.

<sup>22</sup> NAFSA.org Butun jahon pedagoglar jurnali ramiy sayti.

**Adabiyotlar:**

Farmon (2019) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoniga 1-ilova. [<https://lex.uz/docs/4545884>]

Farmon (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston-2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga 1-ilova. [<https://lex.uz/docs/5030957>]

Гулямова С.С., Абдурахмонова К.Х. (2004) Образование в системе человеческого развития: мировая практика и опыт Узбекистана // Под ред. акад. Гулямова С.С., акад. Абдурахмонова К.Х. – Ташкент. – 170 с.

Гулямова С.С., акад. Абдурахмонова К.Х. (2004) Образование в системе человеческого развития: мировая практика и опыт Узбекистана // Под ред. акад. Гулямова С.С., акад. Абдурахмонова К.Х. – Ташкент. – 170 с.

Константинов Г.Н., Филонович С.Р. (2005) Университеты, общество знания и парадоксы образования // Вопросы образования. 4. – с.106-126.

Константинов Г.Н., Филонович С.Р. (2005) Университеты, общество знания и парадоксы образования // Вопросы образования. – 4. – с.106-126.

Рахманбаева Р.А. (2012) Управление интеллектуальным потенциалом вузов в условиях интеграции образования и производства. Автореф.дисс. ... д-ра эконом. наук. – Ташкент, – 50 с.

Хамракулов Ж. (2011) Демократик ўзгаришларни чуқурлаштириш шароитида кадрлар тайёрлашда таълим тизимининг ўрни ва роли // Иқтисодиёт ва таълим. – Тошкент: № 2, – Б. 5-8.

Ходиев Б.Ю. (2012) Приоритеты развития высшего образования // Подготовка образованного и интеллектуально развитого поколения – как важнейшее условие устойчивого развития и модернизации страны. Сборник статей международной конференции. 16-17 февраля 2012 года. – Т., – С. 36-40.

Ходиев Б.Ю. (2012) Приоритеты развития высшего образования // Подготовка образованного и интеллектуально развитого поколения – как важнейшее условие устойчивого развития и модернизации страны. Сборник статей международной конференции. 16-17 февраля 2012 года. – Т., – С. 36-40.